**17. Qaysi javobda asos va qo'shimcha o'rtasida o'zgarish bo'lgan olmoshlar berilgan?**

A) Mana bu, ana shu.      B) Menday, buni.

C) Unday, bunaqa      D) Uning, o'zimiz.

**18. Uzoqdagi narsalarni ko'rsatish uchun qaysi olmoshlardan foydalanamiz?**

A) Bu, shu. B) Mana, u.      C) Ana, u.      D) O'sha, bu.

**19. O'zlik olmoshi bilan qo'llangan kishilik olmoshiga ta'kid ma'nosi yuklangan gapni aniqlang.**

A) Biz o'z tuprog'imizni ko'z qorachig'idek asraymiz.

B) O'zim ham hayronman.

C) Bu ishlami qilgan o'zi.

D) Mening o'zim unchalik yomon odam emasman.

**20. Shaxs, narsa, belgi, harakatlarni jamlab ifodalaydigan olmoshlarni belgilang.**

A) Allakim, qanday.

B) Ana u, mana bu.

C) Qachondir, o'sha-o'sha

D) Hamma, butun.

**21. Bo‘lishsizlik olmoshi ishtirok etgan gapni aniqlang.**

A) Kimdir allanima dedi.

B) Birov unday deydi, birov bunday deydi.

C) Har kim bilganini gapiryapti.

D) Men hech narsa demadim.

**22. Shu-shu biz bordi-keldi qilamiz. - Olmoshning tuzilisbiga ko‘ra turini aniqlang.**

A) Sodda      B) Qo‘shma      C) Juft.      D) Takroriy.

**23. Tub olmoshlar ishtirok etgan gapni belgilang.**

C) Baxtni har kim o‘zicha tushunadi.

D) Kimlridir qorni to‘q.

C) Ana o‘sha yerda o‘zimizni ko‘rsatamiz.

D) Hamma hasharda qatnashdi.

**24. Uning bolasi o‘zboshimcharoq bo‘lib ketgan. -Mazkur gapdagi olmoshdan yasalgan so‘zni belgilang.**

A Uning      B) Bolasi.

C) O‘zboshimcharoq.      D) Bo‘lib ketgan.

**25. Bandayi ojiz so‘zi qaysi olmosh o‘rnida ishlatiladi?**

A O‘zim.      B) Kamina.      C) Men.      D) Biz.

## II-chorak

**1. Bobur ham bolaligi o‘tgan Andijon osmonini esladi. -Gapdagi ismga oid so‘zlarni bir-biriga bog‘lanishda ko‘mak berayotgan qo‘shimchalarni aniqlang.**

A) -ham, -gan.      B) -ni, -di.      C) -i, -ni.      D) -gan, -i.

**2. Egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar qanday ataladi?**

A) So‘z turkumi.      B) Ot.      C) Ismlar.      D) Yordamchi so‘z.

**3. Yolg‘on aytgan kishining boshi xatardan chiqmaydi. Mazkur gap bo‘yicha ismlarning munosabat shakllari to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.**

A) -gan, -ning, -i.      B) -i, -may, -di.

C) -ning, -i, -dan.      D) - di, -gan, - ning.

**4. Qaratqich kelishigini tushirib qoldirish mumkin bo‘lgan qatorni aniqlang.**

A) Bizning shahar.      B) Sharifaning kitobi.

C) Maktabimizning hovlisi. D) Sizning so‘zingiz.

**5. Ismlarni kesimga xoslovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda berilgan?**

- A) -di, -san, -man.                      B) ekan, emish, emas  
C) kerak, lozim, shart.                D) - man, -san, -dir.

**6. Atash ma'nosiga ega bo'lmagan mustaqil so'z turkumi qaysi qatorda berilgan?**

- A) Fe'l.            B) Ot.            C) Sifat.            D) Olmosh.

**7. Ma'naviyat insonga ona suti, ona namunasi, ajdodlar o'giti bilan singadi. -Mazkur gapda yordamchi so'z turkumlaridan qaysi biri ishlatilgan?**

- A) Bog'lovchi . B) Ko'makchi. C) Yuklama D) Olmosh.

**8. Ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasida kelmaydigan so'zni aniqlang.**

**-Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruriyatdir.**

- A) tasodif            B) zaruriyat            C) balki            D) taraqqiyot.

**9. Qaysi gapda sof ko'makchi qo'llanilgan?**

- A) Akam dala tomon ketdi.  
B) Orqadan chuqur soy oqardi.  
C) Bu xabarni radio orqali eshitdik.  
D) U daryo bo'ylab ketayotgan edi.

**10. Qaysi so'z birikmasidagi qo'shimchalar to'g'ri qo'llanilgan?**

- A) meni ona diyorum.                      B) ilmgan mehr qo'ymoq.  
C) olimlarga so'ramoq.                      D) ilmdan bahra olmoq.

**11. Kesimi ismga xos bo'lgan so'z bilan ifodalangan gapni aniqlang.**

- A) Siz ulug' odamsiz.                      B) Gulbahor o'rnidan turdi.  
C) U ko'zini katta- katta ochdi.            D) Karim to'g'ri aytgan edi.

**12. Olmosh ega vazifasida kelgan gapni toping.**

- A) Uning hovlisini ko'rib og'zi ochilib qoldi.  
B) Bundan hech kimga, hech qanday foyda yo'q.  
C) Kimlardir yeng uchida yashaydi.  
D) Ana o'sha yerda o'zimizni sinaymiz.

**13. Egallik qo'shimchalarni olgan ismlar berilgan qatorni aniqlang.**

- A) haqiqiy, boshqalaming, tashvishi.  
B) o'zidan, boshqalaming, kerak.  
C) tashvish bilan, yashashi.  
D) o'zidan, tashvishi, yashashi.

**14. Berilgan so'zlardan qaysi biriga egallik qo'shimchasi qo'shilganda asosda o'zgarish ro'y bermaydi?**

- A) buyruq            B) huquq            C) sog'lik            D) elak.

**15. Berilgan so'zlarning qaysi biri bosh kelishik shaklida berilgan?**

- A) Uchovi.            B) dasturxonni            C) qo'lidan.            D) uyga

**16. Men o'qishim kerak. -Kesimni ega bilan moslashtiruvchi qo'shimcha qanday nomlanadi?**

- A) so'z yasovchi.                      B) lug'aviy shakl yasovchi  
C) egalik                                      D) shaxs-son qo'shimchalari.

**17. Egalik qo'shimchasi qo'shilganda o'zakda tovush o'zgarishi ro'y bergan so'zlar qatorini aniqlang.**

**18. Ko'makchilarni toping.**

- A) qarab, faqat, ba'zan                      B) garchi, avval, yoki  
C) oldida, ba'zan, hattoki                      D) ko'ra, so'ng, tashqari

**19. Har kim o'z qilmishiga yarasha jazosini oladi. -Olmoshlaming gapdagi vazifalari to'g'ri berilgan qatorni belgilang.**

- A) ega, aniqlovchi                                      B) aniqlovchi  
C) faqat ega    D) faqat to'ldiruvchi.

**20. Ot kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi vositalar qanday nomlanadi?**

- A) Ismlar.                      B) Qaralmish                      C) Bog'lama                      D) Kesimlik shakli

**21. U kitob ustida uzoq ishladi. - Ushbu gapdagi ko'makchilar qaysi so'zga bog'langan?**

- A) kitob                      B) uzoq                      C) ishladi                      D) u

**22. Sof ko'makchi berilgan qatorni aniqlang**

- A) ham, kabi    B) va, bilan  
C) ustida, orqali    D) uchun, singari

**23. Bilan, uchun ko'makchilari qachon -la, -chun shaklida qo'llaniladi?**

- A) og'zaki uslub    B) yozma uslub  
C) badiiy uslub    D) rasmiy uslub

**24. Fikr mavzusi ma'nosini bildirgan ko'makchilar berilgan qatorini toping.**

- A) tomon, qarab, B) sababli, uchun,  
C) haqida, to'g'risida D) kabi, singari.

### **III - Chorak**

**1. Vazifadosh ko'makchilarni aniqlang.**

- A) Bilan, sari.    B) bo'ylab, uchun.  
C) tepada, kabi.    D) oldin, ko'ra

**2. Chegara ma'nosini bildiruvchi ko'makchini toping.**

- A) sababli B) so'ng C) qadar. D) tomon.

**3. Chiqish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladigan ko'makchilar berilgan qatorni belgilang.**

- A) old, ost. B) boshqa, tashqari. C) yarasha, muvofiq D) sari, bo'ylab



**4. Vazifadosh bog‘lovchi ishtirok etgan gapni aniqlang.**

- A. Akam ham mukofot oldi.
- B. Sen ham, men ham shu gapga ishonidik.
- C. Kun ilishi bilan daraxtlar kurtak yoza boshlaydi.
- D. U qog‘ozga qalam bilan chiza boshladi.

**5. Sabab bog‘lovchisi ishtirok etgan gapni aniqlang.**

- C) Abdimalik ota nevaralarini yesin deb, har bahorda ko‘chat ekadi.
- D) Qo‘chqor akam bilan amakim ancha orqada qolib ketibdi.
- B) Hamma gullarning hidi bor, ammo rayhonning hidi bo‘lakcha.
- D) Hunar o‘rgan, chunki hunarda gap ko‘p.

**6. Aniqlov bog‘lovchisi ishtirok etgan gapda qanday tinish belgisi ishlatiladi?**

- A) tire B) ikki nuqta S) nuqtali vergul D) vergul.

**7. -Garchi bog‘lovchisi qanday bog‘lovchi hisoblanadi?**

- A) Aniqlov B) Shart C) Sabab D) Teng.

**8. -Axir, dalalarda ish boshlandi. -Mazkur gapda qanday yordamchi so‘z qo‘llanilgan?**

- A) sof ko‘makchi B) ergashtiruvchi bog‘lovchi C) so‘f yuklama D) vazifadosh yuklama

**9. Birrov kirdi-da, chiqib ketdi. -Mazkur gapda qo‘llanilgan -da yordamchisi qanday vazifada kelgan?**

- A) bog‘lovchi B) yuklama C) ko‘makchi D) Qo‘shimcha yuklama

**10. Gumon yuklamasi ishtirok etgan qatorni belgilang.**

- A) Bu yerda na ofat, na kulfat, na g‘am. B) Majlis ertaga qoldirilmaydi-yu. C) Bu haqda Shahnozagina biladi. D) Sizni izlab kelgandir.

**11. Bosh kelishik shaklidagi ismlarga qo‘shiladigan ko‘makchilarni aniqlang.**

- A) yarasha, sayin, doir. B) tomon, bo‘ylab, asosan. C) ko‘ra, so‘ng, sari. D) bilan, kabi, uchun.

**12. Old, ust, ost ko‘makchilari qaysi kelishik shaklidagi ismlarga qo‘shiladi?**

- A) Jo‘nalish B) O‘rin-payt C) Qaratqich D) Tushum

**13. Qaysi gapda ko‘makchi vazifasidagi so‘z qo‘llangan?**

- A) Men uni tashqarida deb uylabman. B) Sizdan tashqari uning hech kimi yo‘q. C) U ichida unga achindi. D) Bu haqda boshqa odam gapirsin.

**14. Vazifadosh bog‘lovchilar qatorini aniqlang.**

- A) Va, lekin B) balki, biroq, hamda C) na, chunki, goh. D) bilan, ham, -yu.

**15. Zidlov bog‘lovchi vazifasida qo‘llaniladigan modal so‘zni toping.**

A) hamda B) shekilli C) balki D) agar

**16. Sabab bog‘lovchilarini aniqlang.**

A) Basharti B) Negaki C) Ya‘ni D) Faqat.

**17. Ta‘kidlash ma‘nosi yuklangan gapni belgilang.**

A) Faqat og‘zidagi o‘ljasu suv yuzida qoldi.

B) Daryo bilan hazillashib bo‘lmaydi-ya.

C) Bu haqda Shahnozagina bilardi.

D) Choy qaynatib ichishni-da unutdi.

**18. So‘roq va taajjub yuklamasini aniqlang.**

A) Xuddi. B) Nahotki. C) Faqat. D) -mi.

**19. O‘xshatish yuklamali gapni aniqlang.**

A. Suv hayot manbaidir.

B. Xuddi otasiga o‘xshaydi.

C) Men faqat haqiqatni aytyapman.

D) Shu maktabda o‘qiysizmi?

**20. Ergashtiruvchi bog‘lovchili gapni toping.**

A) Vatanimiz poytaxtida, ya‘ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko‘p. B)

Orifota har bahorda ko‘chat ekadi. C) Bilim — xazina, ammo uni saqlamaslik kerak. D) Gulnor na o‘qidi, na yozdi.

**21. -dek qo‘shimchasi qaysi ko‘makchilar bilan ma‘nodosh hisoblanadi?**

A) Tomon B) Kabi C) Uchun D) Sari

**22. Sof ko‘makchili birikmani aniqlang.**

A) Buyuklik sari B) Ish ustida C) Ariq bo‘ylab D) Telefon orqali.

**23. Sabab, maqsad ma‘nosini bildirgan ko‘makchili birikmani aniqlang.**

A) Osoyishtalik uchun B) Hikoya to‘g‘risida C) Quyosh singari D) Maktab tomon

**24. Yordamchi so‘z turkumiga oid qaysi fikr noto‘g‘ri berilgan?**

A) Atash ma‘nosiga ega bo‘lmaydi.

B) Gap bo‘lagi vazifasida keladi.

C) So‘zlarni bir-biriga bog‘laydi.

D) Ma‘lum bir so‘roqqa javob bo‘ladi.

**25. Sof yuklamani aniqlang.**

A) -gina B) faqat C) -yu D) -da

#### IV-chorak

**1. Oh, qanday go‘zal bu olam! -Ushbu gapda gap bo‘lagi bo‘lib kelmagan qanday so‘z qo‘llanilgan?**

A) His-hayajon undovi. B) Taqlid so‘z.

C) Buyruq-xitob undovi D) Modal so‘z.

**2. Otning dupur-dupuri eshitildi. -Mazkur gapdagi taqlid so‘z qanday vazifani bajargan?**

A) kesim B) aniqlovchi C) to‘ldiruvchi D) ega

**3. Avvalo, insonning qalbi go‘zal bo‘lmog‘i kerak. -Ushbu gapda qanday ma‘no guruhiga mos modal so‘z qo‘llangan?**

A) Ishonch. B) Gumon. C) Fikr. D) Achinish.

**4. Qaysi gapda qo‘llanilgan modal so‘z xulosalash ma‘nosini bildiradi?**

A) Darhaqiqat, siz to‘g‘ri ish qildingiz.

B) Kanizak, aftidan, shuni aytmoqchi emas edi.

C) Demak, biz ulug‘ odamlarning farzandlarimiz.

D) Afsuski, besh qo‘l barobar emas.

**5. Vazifadosh modal so‘zlarni aniqlang.**

A) Darhaqiqat B) Umuman C) Ehtimol D) Xullas

**6. Faqat bir asosdan iborat bo‘lgan olmoshlarni aniqlang.**

A) Qaysidir B) Hamma C) Allaqanday D) Hech kim.

**7. Atash ma‘nosiga ega bo‘lmagan, ma‘lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan so‘z berilgan qatorni belgilang.**

A) Anao‘sha B) Yigit C) Bahslashdi D) Bilan

**8. Modal so‘z ishtirok etgan gapni belgilang.**

A) Bizning g‘olib chiqishimiz shubhasiz.

B) Siz emas, balki u haqdir.

C) Aftidan, u yolg‘on gapiryapti.

D) Gulchehraning chamasi to‘g‘ri chiqdi.

**9. Sof modal so‘zlar qatorini aniqlang.**

C) Hamisha, aftidan, masalan.

D) Darhaqiqat, biroq, noiloj.

C) Albatta, xullas, taxminan.

D) Balki, ehtimol, chamasi.

**10. Tovushga taqlid so‘zlar qaysi qatorda berilgan?**

A) yarq-yurq, duk-duk, qiy-chuv.

B) bay-bay, gumbur-gumbur, lip-lip.

C) shitir-shitir, taq-tuq, g‘a-g‘a

D) yilt-yilt, voy-voy, chars-churs

**11. Tarkibida inkor so‘z bo‘lgan gapni aniqlang.**

A) Qiroatxona ochmaysizlarmi? -yo‘q, ochamiz.

B) Bunaqa yomon niyat qilmang.

- C) Men suv ichmayman.  
D) U hech qachon kelmaydi.

**12. Nutqiy odat undovlari qaysi qatorda berilgan?**

- A) Salom, hayr, barakalla  
B) hoy, ehe.  
C) tss, voy.  
D) chu, chip-chip.

**13. Qaysi qatordagi soʻzlar yordamchi soʻz hisoblanadi?**

- A)soʻz, kabi, koʻp B) xuddi, gapning, ham C) va, xuddi, ham D) oʻrin, matn, xil

**14. Aql inson uchun eng oliy neʼmatlardan biridir. -Mazkur gapdagi ot soʻz turkumiga oid soʻzlar qatorini ajrating.**

- A) Aql, biridir, eng. B) inson, neʼmat, uchun. C) aql, inson, neʼmat. D) neʼmatlardan, biri, oliy.

**15. Modal soʻzlar qaysi qatorda berilgan?**

- A oh, binobarin. B) duv-duv, chunonchi.  
C) masalan, nihoyat. D) taraq- turuq, hoy.

**16. Taqlid soʻzlar berilgan qatorni belgilang.**

- A) bay-bay, axir. B) alqissa, qiyq.  
C) milt-milt, lapang-lapang. D) Qiy- chuv, hoy.

**17. Qaysi qatordagi soʻzlar ravish soʻz turkumiga tegishli?**

- A)barcha, erta-kech, hech kim.  
B) ham, haqida, toʻxtovsiz.  
C)arang, birpas, ilgari.  
D) doʻstona, beshala, birdan-bir.

**18. Sifatlar otlashganda qaysi gap boʻlagi boʻlib kela oladi?**

- A) ega B) aniqlovchi. C) kesim. D) ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi.

**19. Qoʻshma feʼllar berilgan qatorni aniqlang.**

- A)sotib oldi, aytib qoʻydi. B) olib chiqdi, dam oldi.  
C) sinib qoldi, yigʻlab yubordi. D) duo qildi, yoza boshladi.

**20. Qaysi qoʻshimchalarni ikki, olti sonlariga qoʻshib boʻlmaydi ?**

- A) -ta B) -tadan C) -lab D) -tacha

**21. Xalq ahvolidan doimo boxabar boʻl. -Ravish gapda qaysi gap boʻlagi boʻlib kelgan?**

- A) Aniqlovchi B) kesim C) hol D) toʻldiruvchi

**22. Kitobni koʻp oʻqisangiz, undan koʻp hikmat topasiz.**

**- Olmosh qaysi soʻz oʻrnida qoʻllangan?**

- A) koʻp B) hikmat C) kitob D) oʻqisangiz

**23. Qaysi qatorda o‘rin-payt kelishigi shaklidagi shaxs-narsa ma’nosidagi so‘zlar berilgan?**

- A) tongda, pastda, shaharda B) tushda, mashinada, uyquda  
C) maktabda, kuzda, o‘rtada D) dastgohda, senda, o‘roqda

**24. Faqat ko‘makchilar berilgan qatorni aniqlang.**

- A) binoan, garchand, ko‘ra B) avval, yoki, hattoki  
C) ba‘zan, oldida, garchi D) muvofiq, qarab, bilan

**25. Balki so‘zi qaysi so‘z turkumiga kiradi?**

- A) Ot B) Sifat C) Modal so‘z D) Ko‘makchi

## 8-sinf

### I-Chorak

**1. Badiiy uslubga xos gapni belgilang.**

- A) Aytadilarki otning go‘shiti issiqlik bo‘lib, me‘dani kuchli qiladi, ko‘z suvini ko‘paytiradi.  
B) Yuz falajiga uchragan odam musicha go‘shitini yesa tuzaladi.  
C) Nodira 1792-yil Andijon hokimi Rahmonquliboy oilasida tug‘ildi.  
D) Inson baxtidek ko‘rkamlik, tabiatan ulug‘lik, sog‘lomlik, xushnudlik hammasi onadan.

**2. Adabiy nutq me‘yorlari haqidagi ta‘rif qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?**

- A) Aloqa-aralashuv vositasini bajaruvchi nutq adabiy nutq me‘yori hisoblanadi.  
B) Rasmiy idoraviy uslubdagi nutq me‘yor hisoblanadi.  
C) Til tovushlaridan, so‘z va qo‘shimchalardan, gap qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ifoda vositalaridan foydalanish haqidagi qoidalar nutq me‘yorlari deyiladi.  
D) Jonli so‘zlashuv tili nutq me‘yori hisoblanadi.

**3. Qaysi qatordagi gapda shevaga xos so‘zlar ishtirok etgan?**

- A) Tilda so‘zlar va qo‘shimchalar ma‘lum bir qoidalar asosida yoziladi.  
B) Ikromjon taxmon chetiga tirab qo‘yilgan yog‘och oyoqni kiyib chiqib ketdi.  
C) Nafis chayqaladi bir tup na‘matak D) Uyga kir jiyan, yo‘l yurib kelgansan.  
- Yo‘q, shettan qayta qolay.

**4. Ramziy-badiiy insho mavzusi berilgan qatorni aniqlang.**

- A) Alisher Navoiy ijodida umuminsoniy qadriyatlarning ulug‘lanishi.  
B) Abdulla Qahhor — mohir hikoyanavis.  
C) Ona tilida bitilgan sehrlil satrlar.  
D) Yangi asr orzulari.

**5. Tilning ijtimoiy vazifasi qaysi qatorda to‘liq ifodalangan?**

- A) Til soʻz va qoʻshimchalardan iboratdir.
- B) Til kishilar oʻrtasidagi aloqa-aralashuv vositasi hisoblanadi.
- C) Til Morfologiya va Sintaksis kabi boʻlimlarga boʻlib oʻrganiladi.
- D) Til ogʻzaki va yozma tarzda namoyon boʻladi.

**6. Berilgan soʻz birikmalari tarkibida ajratilgan vositalardan qaysi birlari qoʻshimcha maʼno berayotganligini aniqlang.**

- A) Gʻalabaga erishmoq, buyuk baxt
- B) Tinchlik haqida suhbat, soʻnggi qoʻngʻiroq
- C) Doʻstlar bilan uchrashuv, baxt kaliti
- D) Mustaqilliknigina sharaflamoq, chogʻroqqina xona

**7. Tobe soʻz hokim soʻz bilan kelishik qoʻshimchalari yordamida birikkan soʻz birikmalari qaysi qatorda berilgan?**

- A) Moviy osmon, Zuhro yulduzi
- B) Togʻ choʻqqisi, kitob oʻqimoq
- C) Yoqimli kuch, dala yumushlari
- D) Aʻlochi oʻquvchilar, kitobsevarlar uyushmasi

**8. Qaysi qatorda ibora berilgan?**

- A) Yoʻl boshi, boshga koʻtarmoq
- B) Koʻzi ochildi, xol qoʻydi
- C) Razm solmoq, bahsga chorlamoq
- D) Hayot daraxti, achchiq soʻz

**9. Qaysi qatordagi gapda tasviriy ifoda qoʻllangan?**

- A) Mutoala inson hayotida muhim oʻrin tutadi.
- B) Dono soʻziga bino qoʻyar, nodon oʻziga.
- C) Xush havoli, yangroq navoli, bogʻim yaxshi, bahorim yaxshi.
- D) Gʻishtin polli uyga kirdik.

**10. Qaysi qatordagi soʻz juftliklarini birlashtirish mumkin?**

- A) Qiziqarli kitob, mening kitobim
- B) Sharafli kasb, mashaqqatli kasb
- C) Yoʻl harakati, yoʻl boshi
- D) Chiroyli yozuv, eski yozuv

**11. Qaysi qatorda gap berilgan?**

- A) Baxt qushi, mustaqillik bayrami
- B) Ijodiy fikr, doʻstlik haqida suhbat
- C) Kitob bilan oshno, barkamol avlod.
- D) Maktab shinam, havo issiq

**12. Berilgan maqollarning qaysi biri shirinsuxanlik haqida aytilgan?**

- A) Didsiz o‘tirgan yerini ham changitar.
- B) Oldin angla, keyin tanla
- C) Do‘stingga rost gapir, dushmaningga maqtanib.
- D) Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin.

**13. Majhul nisbatdagi fe‘l ishtirok etgan gap qaysi qatorda berilgan?**

- A) Abu Nasr Forobiy butun umrini ilm o‘rganishga bag‘ishlagan.
- B) Berilgan topshiriq bajarildi.
- C) Til — tafakkur elchisi.
- D) Tilning tirikligi xalqning mavjudligidir.

**14. Qaysi qatordagi gapda sifatdosh mavjud.**

- A) Kecha yoqqan qor tezda erib ketdi.
- B) «Ko‘klam kelsa ko‘chat ek», - degan ekan mashoyixlar
- C) Abdurahmon Jomiy - Sharqning buyuk mutafakkiri.
- D) Tong saharlab darvoza taqilladi.
- E) Quyosh nuri berkitilmaydi, haqiqat shomi so‘nmaydi.

**15. Fe‘l kesim vazifasida kelgan gapni aniqlang.**

- A) Ko‘p ko‘rgan keksaning ishi ibratli
- B) Hayotda qoldirsa kim abadiy nom, eng baxtli odam shu, xullasi kalom.
- C) Xusrav Dehlaviy o‘zi kuylagan yuksak insonparvarlik g‘oyalari bilan asrlarga hamroh va hamdamdir.
- D) Xusrav umrining oxirgi o‘ttiz yilini Dehlida o‘tkazdi.

**16. Asliy sifatlar qaysi qatorda to‘liq berilgan?**

- A) serharakat, go‘zal, badavlat
- B) ishlari, shox, tinch
- C) sermulozamat, sersuv, hosildor
- D) tejamkor, mahoratli, mohir

**17. Qaysi qatorda ilmiy uslubga xos gap berilgan?**

- A) «Ne uchun g‘amnok ko‘rinasiz?» -dedi
- B) Seni, hur va ozod, seni kuylayman
- C) Saxiylik va olijanoblik insonning ulug‘vor fazilati.
- D) Oqsil yoki boshqa biron moddaning yemirilgan har bir molekulasi o‘mida yangi molekula tiklanadi

**18. Rasmiy uslubga xos gap berilgan qatorni aniqlang.**

- A) Tabib o‘z fani sohasida bilimdon va kasallariga mehribon boiishi kerak
- B) Bola huquqlari to‘g‘risida konventsiya qabul qilindi.
- C) Har bir so‘z zamirida inson nomi gavharday saqlanadi.
- D) Sen bahorni sog‘inmadingmi?

**19. Murakkab kesimli gap qaysi qatorda berilgan?**

- A) Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy «Bahoriston»ida saxovat va karamni ulugʻlaydi.
- B) Bitta bulbul qanchadan-qancha odamning dilini xush qiladi.
- C) Inson bolasi hamma rizq-roʻzini yerdan topadi.
- D) Yaxshi kishi doim yaxshilik topadi

**20. Qaysi qatorda ot-kesimli gapda tire qoʻyiladi?**

- A) Saxiylik va olijanoblik inson uchun ulugʻ fazilatdir.
- B) Daraxtlar moʻl va yirik, lekin deyarli hammasi koʻm-koʻk.
- C) Maʼrifat tinchlik va farovon hayot kaliti hisoblanadi.
- D) Bu siz uchun katta sinov.

**21. Shart maylidagi feʼl qaysi qatordagi gapda qoʻllangan?**

- A) Osmon goʻzal oyi, quyoshi bilan  
Inson goʻzal mardlik, bardoshi bilan.
- B) U keladi, albat qoʻshinga elga shodlik olib keladi.
- C) Ey jahonga arzigan Inson, ojizmanki boqaman sizga
- D) Yigʻsang yetasan, sovursang ketasan.

**22. Berilgan gapni quyida berilgan soʻz qoʻshilmalaridan qaysi biri toʻldirishi mumkin.**

**Qahramon tirikligi bilan emas, qahramonona ishi bilan ...**

- A) qoniqdi
- B) murodiga yetdi.
- C) abadiy boʻldi
- D) gʻalaba qozondi

**23. Qaysi qatordagi gapda ega olmosh bilan ifodalangan?**

- A) Undan sal nordon va shirin hid kelardi.
- B) Isteʼdodli adib koʻp asarlar va dramalar yozdi.
- C) Gullagan vodi, kishnagan toʻying goʻzal.
- D) U biz bilan ketishi lozim.

**24. Yashiringan egali gap berilgan qatorni belgilang.**

- A) Toʻgʻri nafas olish deganda ogʻizdan emas, balki burundan nafas olish tushuniladi.
- B) Maydonchaga boʻlib toʻda, oʻynashamiz qorboʻron.
- C) Boshqalar ham xayrlashib chiqib ketishdi.
- D) Bunday unvonlar bekorga berilmaydi, albatta.

**25. Qaysi gapda gap boiaklari notogʻri joylashgan?**

- A) Aql ulugʻlikka, aqlsizlik esa tubanlikka yetaklaydi.
- B) Suv bilan ekin oʻsar, tarbiya bilan — odam
- C) Ona qalbi bitmas-tuganmas moʻjizalar manbaidir.



D) Nafls chayqaladi bir tup na'matak

## II-chorak

**1. Quyida berilgan gap turini aniqlang.**

**O'rnida, vaqtida va sidqidildan aytilgan oddiygina so'z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi.**

- A) Ifodalangan egali gap
- B) Yashiringan egali gap
- C) Egasiz gap
- D) Atov gap

**2. Qaysi qatorda egasi umumlashgan gap berilgan?**

- A) Tepdim terakka chiqdim
- B) So'zni bilib so'zlasa donolik sanalur.
- C) Piyoz juda ko'p kasalliklarga, jumladan, qon bosimini pasaytirishga ham davodir.
- D) Chin donolar ustoz oldida shogirdligin unutmas aslo.

**3. Atov gap qaysi qatorda berilgan?**

- A) Yolg'onchi kishi emas, yolg'on aytmoq -mardlar ishi emas
- B) Ona bog'bon, niholni kamol toptirar
- C) Yaxshi kishi doim topadi.
- D) Subhidam. quyosh yotog'idan bosh ko'tarar

**4. Quyida berilgan gapning turini aniqlang.**

***Bahor keldi.***

- A) Atov gap
- B) So'z gap
- C) Yig'iq gap
- D) Yoyiq gap

**5. Murakkab hol ishtirok etgan gap qatorini belgilang.**

- A) Ertalab atayin Sizni izlab kelgan edim.
- B) O'z ko'zi bilan ko'rib ishonish maqsadida yana bir kelib ketdi.
- C) Ma'suda xaholab kulib yubordi.
- D) Sizdaylarni ko'p ko'iganmiz

**6. Qaysi qatordagi gapda o'xshatish holi ishtirok etgan?**

- A) Ikkovlari gangur-gungir gaplashib o'tirishdi.
- B) Biz ataylab o'qish uchun shu dargohga kelganmiz
- C) Ko'plab kitob o'qish, o'qiganda ham uni tushunib o'qishda hikmat katta
- D) Yaxshidan ot, yomondan dod qoladi

**7. Quyida berilgan gapda holning qaysi turi ishtirok etgan? Ichkarida bo'layotgan baqiriqlarni eshitib qo'rqqanidan yuragi qinidan chiqayozdi**

- A) O'rin holi
- B) Payt holi
- C) Maqsad holi
- D) Sabab holi

**8. Qaysi qator ushbu gapning davomi boia oldi?**

Shirin til odamni....

- A) maqsadga yetaklaydi                      B) baxtiyor qiladi  
C) farovon qiladi,                              D) boyitadi

**9. Qaysi o‘rinda vositasiz to‘ldiruvchi belgisiz qo‘llana oladi.**

- A) Otabek tovush egasini tanidi.  
B) Til kishini baxtli qiladi  
C) Vaqtingizning ko‘p qismini kitob o‘qishga sarflang.    D) So‘zni bilib so‘zlasa, donolik sanalur erdi.

**10. Qaysi qatordagi gapda iboralardan tuzilgan vositasiz to‘ldiruvchi qo‘llangan?**

- A) Chappar urib gullagan bog‘in,  
    O‘par edim Vatan tuprog‘in.  
B) Er so‘zlasa, el-yurtning baxtini ko‘zlar emish.  
C) Umri ilmga bag‘ishlagan odam, abadiy umrga erishadi.  
D) Shirin tilli odam bir qil bilan, hatto, flni olib kelishi mumkin.

**11. Murakkab vositasiz to‘ldiruvchi ishtirok etgan gap qatorini belgilang.**

- A) O‘rik suvi tashnalikni qondiradi.  
B) Yaxshi odam beg‘ubor, keng fe‘li bo‘ladi  
C) Yaxshilik urug‘ini sepsang har zamon, jannat mevasini olasan shu on.  
D) Boshim omon bo‘lsin desang, tilingni ehtiyot qii

**12. Harakat nomi bilan ifodalangan to‘ldiruvchili gap qaysi qatorda berilgan?**

- A) So‘z qanchadan-qancha dilkash kishilarni bir to‘lqin bilan yarqiratib, dilini xushnud etadi.  
B) Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni farqlash kerak.  
C) Biror narsani yomon bilgandan ko‘ra, butunlay bilmagan ma‘qul.  
D) Yotishdan oldin og‘iz chayishni, oyoqni iliq suv bilan yuvishni unutmang.

**13. Sifatdosh birikmalari bilan ifodalangan murakkab vositasiz to‘ldiruvchili gap qatorini aniqlang.**

- A) Ilm buloqlaridan bahramand bo‘lishning o‘zi bir baxt.  
B) Kitob o‘qimagan kishining zehni o‘tmaslasha boradi.  
C) Rang ko‘r — hol so‘r.  
D) O‘rtog‘ining xushxabar keltirganini eshitgan Dildora unga minnatdorchilik bildirdi.

**14. Berilgan ko‘chirma gaplarning qaysi birida vositasiz to‘ldiruvchi mayjud?**

- A) «Inson insonni boshiga ko‘tarmasa, bu dunyo barbod bo‘ladi!» - derdilar onam.  
B) Choy damlab kelay, ichamiz ona-bola — dedi u.

C) «Musiqqa ovozi yangrayapti, yoshlar o‘yinga tushayotir - deb hikoya qiladi yozuvchi.»

D) «Xo‘sh, nega tushunmas ekansan?» - hayron bo‘ldi muallim

**15. Qaysi qatordagi gapda vositali to‘ldiruvchi son bilan ifodalangan?**

A) Men bunaqa voqealar tog‘risida qanchadan-qancha kitoblar o‘qiganman.

B) Qudratning birdan-bir maqsadi ularning hammasida haqiqiy fanga qiziqish uyg‘otish edi.

C) Ular tog‘ yon bag‘ridagi cheksiz tolzorga kirib kelishgan edi.

D) Yoshi qirqlardan sal o‘shgan, chang bosgan pal‘to va katak cholvar kiygan kishi uyga kirib keldi.

**16. Ko‘makchili to‘ldiruvchi ishtirok etgan gap qatorini aniqlang.**

A) Ko‘ngil daryosining gavhari tildir, til gavhardan afzal va martabasi balanddir.

B) Til millatning qalbi

C) Tilimizning sofligi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchimizni ado etgan bo‘lamiz.

D) Ko‘p tilni bilish bir qulfning ko‘p kalitiga ega bolish demakdir.

**17. Qaratqichli aniqlovchi ishtirok etgan gap qatorini belgilang.**

A) XV asr ona tilimizning gullash davri sanaladi.

B) Nutq og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi

C) Meni kutgil va men albatta qaytaman.

D) Yaxshi kishi doim topadi.

**18. Belgisiz qaratqich aniqlovchili so‘z birikmalari qaysi qatorda berilgan?**

A) Musaffo havo, nafis gullar

B) Oy sho‘lasi, institut binosi

C) Navbahor kezlari, oydin kechalar

D) G‘ayrat bilan ishlamoq

**19. Murakkab birikmalar berilgan qatorni aniqlang.**

A) Yoshlik yillari, oltin dalalar

B) Mehr bilan parvarishlamoq, tinchlik haqida bitim

C) Qo‘li ochiq kishi, puxta bilimli bola

D) Shirmon yuz, buyuk mutafakkir

**20. Qaysi qatordagi gapda izohlovchi ishtirok etgan?**

A) Sutdek oppoq tong otayapti.

B) Poliz yam-yashil bo‘lib yashnab yotibdi.

C) Zargarlarning, kosiblarning, kulollarning bozorlari ham chaqqon ekan.

D) Ana, u kichikkina, qora munchoqday ko‘zlarini ochdi.

**21. Sifatlovchi — aniqlovchi ishtirok etgan gap qaysi qatorda berilgan?**

A) Bilib so‘zlasa donolik bolur.

B) Ota — sarbon, ona-bog‘bon

- C) Har bir soʻz zamirida inson nomi gavharday saqlanadi.  
D) Kokili gul, koʻylagi nur bahorning quchogʻida yayra, yashna, qanot qoq.

**22. Qaysi qatorda atov gap berilgan?**

- A) Biz ota-onamizni qadrlaymiz  
B) Ustozlar sabogʻi - hayot chirogʻi  
C) Uy jimjit. Demak, tinchlik.  
D) Uzoqdan duk-duk ovoz kelardi.

**23. Uyushiq boʻlakli gap qatorini belgilang.**

- A) Birni birov beradi, koʻpni mehnat  
B) Butun zamin larzaga keldi.  
C) Tashqaridan allakimning ovozi eshitildi.  
D) Saida goh afsuslanib, goh kuyib va goh kulib gapirib berdi.

**24. Qaysi qatordagi gapda hollar uyushib kelgan?**

- A) Mehnatda, ijodda, sanʼatda, fanda kattadir yoshlarning qoʻshgan hissasi.  
B) Bu daraxtlarni Hindistondan, yana allaqaerdan oldirib kelibdi.  
C) Bemorning his-tuygʻulari, oʻy-xayollari va kelajak ishlari hamma-hammasi vrachning qoʻlida.  
D) Ishonch kishi qalbining hukmi, u hech vaqt yuqotilmaydi.

**25. Toʻldiruvchi uyushib kelgan gap qaysi qatorda berilgan?**

- A) Gapning ozi yaxshi, danakning magʻzi  
B) Yozma nutqda qoʻshma gaplar asosan ilmiy uslubda ishlatiladi.  
C) Birovga chuqur qazigan odam, oʻzi shu chuquiga tushadi.  
D) Alimardon ham quvonch, ham zavq bilan unga burilib qaradi.

### **III-Chorak**

**1. Qaysi jumlada qoʻshma soʻz ishtirok etgan?**

- A) «Bosh ogʻriqni koʻpaytirmang», -dedi rahbarimiz.  
B) Dori bosh ogʻrigʻini darrov qoldirdi.  
C) Qayerdandir oq qushlar uchib keldi.  
D) Qiziqchi qizil ishton kiygan edi.

**2. Erkin bogʻlangan soʻzlar birikmasi nimani anglatadi?**

- A) Bir leksik maʼnoni anglatadi.  
B) Tushunchani anglatadi.  
C) Soʻzlar kabi aniq maʼnoni anglatadi.  
D) Tuygʻun maʼnoni anglatadi.

**3. Egasiz gapni aniqlang.**

- A) Tez kunda sayohatga boramiz.  
B) Bugun Samarqandga joʻnaladi.  
C) Yoʻlda biroz toʻxtashga toʻgʻri kelib qoldi.

D) Uylab qaragam, haq ekansiz.

**4. Qo'shma fe'llar berilgan qatorni aniqlang.**

A) Sotib oldi, aytib qo'ydi.

B) Olib chiqdi, dam oldi.

C) Sinib qoldi, yig'lab yubordi.

D) Duo qildi, yoza boshladi

**5. Sodda gap tarkibidagi barcha bolaklar qaysi gap bolagi atrofida birlashadi?**

A Ega            B) To'ldiruvchi.    C) Kesim            D) Hol.

**6. Kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish — harakatning bajaruvchisini ko'rsatuvchi gap bolagini aniqlang.**

A) Hol.            B) Aniqlovchi.            C) To'ldiruvchi.    D) Ega

**7. Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari qaysi qatorda berilgan?**

A) Ot kesim.            B) Murakkab kesim.

C) Fe'l kesim.            D) Otlashgan kesim.

**8. Ot kesimli gapni aniqlang.**

A) Motor gurillab, mashina oldinga intildi.

B) Po'lat xatni kecha yuborgan.

C) Sizdan umidim ko'p.

D) Mo'tabar eshikni sekin yopib chiqib ketdi.

**9. Qaysi gapda kesim ibora bilan ifodalangan?**

A) U birdaniga to'nini teskari kiyib oldi.

B) Yashashning asl mazmuni- yaratish.

C) O'sha kuni sovuq qattiq edi.

D) So'zga chiqishing zarur.

**10. Nomustaqil kesim qanday grammatik shaklda bo'ladi?**

A) Shaxs-son shaklida            B) Zamon shaklida

C) Shart mayli shaklida            D) Bog'lama shaklida

**11. Qaysi gapda ega ravish bilan ifodalangan?**

A) Ikkalasi ham chiqib ketishdi.

B) Aziz o'sha kitobni o'qidi.

C) Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin.

D) Ko'p so'zning ozi yaxshi.

**12. Egasiz gaplarning turi berilgan gapni aniqlang.**

A To'garakka borish kerak.

B) Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

C) Derazadan ko'chaga tikilaman.

D) Uyga dahliz orqali kiriladi.

**13. Berilgan gaplardan qaysi biri yoyiq atov gap hisoblanadi?**

- A) Nima-nima?-deb so‘radi u.
- B) Yangi shahar ko‘chalari.
- C) Kuz.
- D) Odamlarni chaqirtirdingizmi?

**14. Maqsad holi mayjud bo‘lgan gapni aniqlang.**

- A) Shabada g‘ir-g‘ir esa boshladi.
- B) Biz do‘stona xayrlashdik.
- C) O‘qigani kelganmisan?
- D) Uni kecha kuzatdim.

**15. Hol gapda qaysi gap bo‘lagiga tobelanib keladi?**

- A Ega    B) To‘ldiruvchi.    C) Kesim.    D) Aniqlovchi.

**16. Ko‘makchili ot bilan ifodalangan hol ishtirokidagi gap qaysi javobda berilgan?**

- A) Birni birov beradi, ko‘pni-mehnat.
- B) Sal o‘tmay Shirinoy daladan qaytib keldi.
- C) Bunda qurtlar ipak to‘qiydi.
- D) Tinchlik tufayli yurt obod.

**17. Qaysi gapda murakkab hol ibora bilan ifodalangan?**

- A) Ayol bir-bir bosib minbarga chiqdi.
- B) Kampir o‘g‘lini kuta-kuta dunyodan ko‘zi ochiq ketdi.
- C) To‘g‘ri yursang, murodingga oson yetasan.
- D) Anor bilan opasi arazlashganda, akasi ularni yarashtirib qo‘yardi.

**18. Berilgan gaplar orasidan sabab holi ishtirok etgan gapni aniqlang.**

- A) Bolalar o‘ynagani ko‘chaga chiqib ketishdi.
- B) Bog‘dan chiqish uchun bir necha odim yurdi.
- C) Bir chimdim uxlash uchun ko‘zini yumdi.
- D) Donoxon darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo‘ldi.

**19. Qaysi qatorda daraja-miqdor holiga oid so‘zlar berilgan?**

- A) O‘ychan, uch marta, tez.    B) Ko‘p, yuz marta, ikki barobar.  
C) Zo‘ig‘a, yig‘lab, uch marta    D) Indamay, ikkitacha, oz.

**20. To‘ldiruvchining ifodalanishiga oid qaysi fikrga noto‘g‘ri izoh berilgan?**

- A Harakat nomi bilan.    B) Otlashgan sifat bilan.  
C) Modal so‘z bilan.    D) Sof fe‘l bilan.

**21. Sifatlovchi aniqlovchi berilgan gapni aniqlang.**

- A) Po‘lat sandiq ochildi, ichidan zar sochildi.
- B) Dutor torlarining jarangi Zumradning tovushiga qo‘shilib ketdi.
- C) Umid yulduziga boqib, hayot chashmasini qidiraman.
- D) Kelganlarning birortasi ham meni tanimas edi.

**22. Ot so‘z bilan ifodalanib, shaxsni boshqacha nom bilan izohlangan aniqlovchining turi qo‘llangan gapni aniqlang.**

- A) Bo‘lajak kuyov kosib ekan.
- B) Ustaxonaga To‘ra kosib kirib keldi.
- C) Kosibning hunari xor bo‘lmaydi.
- D) Kosib bo‘lish oson emas

**23. Gapning o‘zgargan tartibi qaysi uslubga xos hisoblanadi?**

- A) Ilmiy uslub                      B) Badiiy uslub
- C) Yozma uslub                    D) Rasmiy uslub

**24. Hozirgi o‘zbek yozuvida necha xil tinish belgisidan foydalaniladi?**

- C) 6 ta      B) 5 ta      C) 10 ta      D) 8 ta

**25. Qanday gaplar to‘liq gap hisoblanadi?**

- A) Gapning barcha bo‘laklari juft holda ifodalangan gaplar.
- B) Fikr ifodalash uchun zarur bo‘lgan hamma bo‘laklar saqlangan gaplar.
- C) Suhbat nutqida qo‘llanilib, biror bo‘lagi tushirib qoldirilgan gaplar.
- D) Umumiy qoida, qonuniyatlarga tegishli bo‘lmagan gaplar.

#### **IV- Chorak**

**1. Uyushiq kesimlar qaysi bo‘lakka aloqador bo‘lishi zarur?**

- A) Ega      B) To‘ldiruvchi.      C) Aniqlovchi      D) Hol.

**2. Qaysi ta‘rif uyushiq bo‘laklarga xos emas?**

- A) Gapda bir xil sintaktik vazifani bajaradi.
- B) O‘zaro teng aloqada bo‘ladi.
- C) Bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi.
- D) Boshqa bo‘laklar teng aloqada bo‘ladi.

**3. Umumlashtiruvchi so‘z qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishi mumkin?**

- A) Ko‘makchi.      B) Yuklama      C) Olmosh.      D) Bog‘lovchi.

**4. Ajratilgan bo‘lak yozuvda qanday ajratiladi?**

- A) Izohlanayotgan bo‘laklarning ma‘nosini izoh‘laydi.
- B) Izohlanayotgan birikmali bo‘lak holida keladi.
- C) Izohlanayotgan bo‘lakdan oldin keladi.
- D) Izohlanayotgan bo‘lakdan keyin kelib, vergul, tire va qavs quo‘yiladi.

**5. Ajratilgan izohlovchilar ko‘proq qaysi bo‘lakka ta‘luqli bo‘ladi?**

- A) Kesim.      B) Ega      C) Aniqlovchi.      D) Hol.

**6. Ajratilgan izohlovchi ishtirok yetgan gapni aniqlang.**

- A) Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish motam!
- B) Bir vaqtlar siz ham, Temur Akbarovich, xato qilishdan qo‘rqmasdik, deb dadil gapirar edingiz.

C) Orqada tikka turgan yoshgina yigit, Mamadali, o'zini odamlarning orasiga oldi.

D) Dadam shu atrofdan-qishloqning o'rtasidan do'kon qidirdi.

**7. Kiritmalarga xos bo'lmagan fikr qaysi javobda berilgan?**

A) Matnning umumiy mazmuniga aloqador bo'ladi.

B) Gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi.

C) So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabatini ifodalaydi.

D) Gaplarda ajratib ko'rsatilmaydi.

**8. Kiritma gaplar qaysi sohada ko'p qollaniladi?**

A) Og'zaki nutq.            B) Yozma nutq.

C) Dramatik nutq.        D) She'riy nutq.

**9. Ega ishtirok etgan undalmali gapni aniqlang.**

A) Kitob, mening doimiy do'stiman.

B) O'quvchilar, dam olish kunini ko'ngilli o'tkazing.

C) Kitob, sen bo'lmasang, balki kun yorishmasdi.

D) Ukajon, kitobingni sandiqda ko'p saqlamagin.

**10. Quyidagi gap tahlili sintaktik tahlilning qaysi bosqichiga mansub?**

- *Ota yuz-qo'llarini yuvgandan so'ng sal nariga borib o'tirdi.*

1. Ifoda maqsadiga ko'ra- darak gap.

2. His-hayajonsiz gap.

3. Sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap.

A) So'z birikmasi bo'yicha tahlil.

B) Gap qurilishi bo'yicha tahlil.

C) Gap bo'laklarini aniqlash bo'yicha.

D) Sintaktik tahlil emas.

**11. Qaysi gapda sifatlovchi-aniqlovchi ishtirok etgan?**

A) Yuzida bilinar-bilinmas chechak o'rni qolgan ayol sekin o'rnidan tuidi.

B) Ko'rganni yeshitgan yengibdi.

C) Birni birov beradi, ko'pni mehnat.

D) Jismoniy tarbiya darsi maktab hovlisida o'tkazildi.

**12. So'zlarning teng boglanishi nimani hosil qiladi?**

A) Tobe bog'lanish.        B) So'z qo'shilmasi.

C) So'z birikmasi.        D) To'liq bog'lanish.

**13. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qaysi uslubda yoziladi?**

A) Badiiy uslub        B) Ilmiy uslub

C) Rasmiy uslub        D) Publitsistik uslub

**14. Faqat ot so'z turkumiga oid so'zlar qatorini aniqlang.**

A) Kuz, biz, ertalab

B) O'tir, o'ntacha, buyuk.



C) Borma, sakkizinchi, hech kim. D) Havo, uyqu, chiroy.

**15. Olmoshning boshqa turkumlardan ajralib turadigan xususiyati qaysi javobda berilgan?**

A) Gap bo‘lagi bo‘lib keladi.

B) Ma‘lum bir so‘roqqa javob bo‘ladi.

C) Yasalish xususiyatiga ega emas.

D) Ma‘no jihatdan turlarga bo‘linadi.

**16. Ko‘makchilar berilgan qatorni aniqlang.**

A) Kerak, agar, hatto.

B) Uchun, shuning uchun, balki.

C) Sari, boshqa, kabi

D) Xuddi, axir, qadar.

**17. Modal so‘zlar qatorini aniqlang.**

A) Ehtimol, eh, g‘ir-g‘ir

B) Ofarin, shekilli, evoh

C) Yalt-yult, afsuski, ham

D) Albatta, shubhasiz, demak

**18. Qaysi olmoshga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilsa tovush ortadi?**

A) Men.

B) Sen

C) Biz

D) U

**19. Har so‘zi o‘rniga hech so‘zi qo‘yilsa, olmoshning qaysi turi hosil bo‘ladi?**

A) Gumon.

B) O‘zlik.

C) So‘roq.

D) Bo‘lishsizlik.

**20. O‘timli fe‘lni aniqlang.**

A) Esdi.

B) Supurdi.

C) Sovimadi.

D) Chopmadi

**21. Ajratilgan hol berilgan gapni toping.**

A) Onam hovlidan- ishkomb tagidan- yo‘qolgan uzukni izladi.

B) Maktubni faqat menga keltirib bering.

C) Bizning, olimlarning , o‘zimizga loyiq nufuzimiz bo‘lishi kerak.

D) Xonaga shoshilib, Dilbar opa, tarbiyachimiz kirib keldi.

**22. Tufayli ko‘makchisi qanday hol tarkibida bo‘ladi?**

A) Sabab holi.

B) Ravish holi.

C) Maqsad holi

D) Miqdor —daraja holi.

**23. Rejasiz ish - qolihsiz g‘isht. -Mazkur gap qanday gap bo‘laklaridan tuzilgan?**

A) Ega, to‘ldiruvchi, kesim B) Ega, kesim.

C) Ega, aniqlovchi, kesim

D) Aniqlovchi, ega, aniqlovchi.

**24. Halol odamni badnom qilib bo‘lmaydi. -Bu gap qanday gap hisoblanadi?**

A) Atov gap.

B) So‘z gap.

C) Shaxsi yashiringan gap.

D) Shaxsi topilmas gap.

**25. Salom, xayr, xo‘p, uzr so‘zlari bilan ifodalangan gaplar qanday nomlanadi?**

- A) To‘liqsiz gap.                      B) So‘z gap.  
C) Atov gap.                              D) To‘liq gap.

## **9-sinf**

### **I - Chorak**

**1. Hozirgi kunda yer yuzida necha xil til mavjud?**

- A) 2600 dan ortiq.      B) 3000 dan ortiq.  
C) 2700dan ortiq.      D) 2000 dan ortiq.

**2.O‘zbek tili qaysi tillar oilasiga mansub?**

- A Hind-evropa      B) Turkiy      C) Xom-som.      D) Oltoy.

**3.Bitishuv munosabatli so‘z birikmasi qaysi qatorda berilgan?**

- A) Kasb-hunar egallamoq.      B) Bilimsiz kishi.  
C) Kishining ko‘ngli.      D) Ibodatdan afzal.

**4.Hokim so‘z tobe so‘zga moslashuv munosabati bilan bog‘langan so‘z birikmasini toping.**

- A) O‘zaro nizo qilmoq.      B) O‘g‘illariga bermoq.  
C) Sizning ahvolingiz.      D) Cho‘plarni sindirmoq.

**5.Odamlar aybini ko‘rma, o‘z aybingni ko‘r. Aniqlovchi vazifasidagi so‘zni aniqlang.**

- A) Aybini.      B) Odamlar, o‘z.      C) Ko‘rma      D) O‘z aybingni.

**6.Har bir odam do‘stlaridan shuni, burchlarini ado etishni talab qiladi. - Gapdagi ajratilgan bo‘lakni toping.**

